

ABU ALI IBN SINO ASARLARI – BUYUK MA’NAVIYATNING TARIXIY ILDIZLARI

Xayrullayeva Lobar

Toshkent Davlat Agrar universiteti talabasi

Ilmiy maslahatchi: dotsent, H.Xushvaqtoev

Oʻrta Osiyo uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllanib kelgan noyob moddiy va maʼnaviy yodgorliklari bilan insoniyat sivilizatsiyasining qadimgi oʻchoqlaridan biri sifatida joy olgan. Bu buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgan, insoniyat hayotiga ulkan taraqqiyotni olib kelgan bizning buyuk bobolarimizdir. “Буюк аллома ва адібларимиз, азиз-авлиёлари- мизнинг бебаҳо мероси, енгилмас саркарда ва арбоб-ларимизнинг жасоратини ёшлар онгига сингдириш, уларда миллий ғурур ва ифтихор туйғуларини кучай-тиришга алоҳида эътибор ҳаратишимиз керак”¹, - haqiqatdan ham bu buyuk merosni har birimiz bilishimiz va anglasimiz kerak. Maʼlumki, IX-XII asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlari oʻrtasida ilm-maʼrifatga intilishning kuchayishi, jahonni lol qoldirgan buyuk mutafakkirlarning yetishib chiqishi bu hududning ilm-maʼrifat, ilmiy kashfiyotlar beshigi sifatida tarixda “Oʻrta Osiyo renessansi”, “Musulmon renessansi” kabi tushunchalar bilan baholangani bejiz emas. Shveysariyalik sharqshunos olim Adam Mesning “Musulmon renessansi” asari IX-X asrlarda musulmon Sharqida yuz bergan madaniy rivojlanish tarixiga bagʻishlangan noyob kitob hisoblanadi. Unda ijtimoiy hayotning boshqaruv, moliya, qonunlar, soliq tizimi, shaharlar hayoti, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan bir qatorda, ilmiy va madaniy hayot, din, adabiyot va boshqa mavzular yoritilgan². Muallifning taʼkidlashicha, Musulmon renessans va Yevropadagi uygʻonishning umumiy ildizi, yunon fani yutuqlari boʻlgan.

Ona zaminimiz sivilizatsiya va ilm-fan rivojiga katta hissa qoʻshgan buyuk mutafakkirlarni dunyoga yetkazib bergan. Ulardan biri buyuk olim, faylasuf va tabib, zamonaviy tibbiyot asoschisi Abu Ali Ibn Sino boʻlib, Yevropada “Avitsena” nomi bilan mashhurdir. Ibn Sino(asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlogʻida , 980- yilning safar oyida, amaldor oilasida tugʻiladi. 986-yilda Ibn Sino oilasi Buxoroga koʻchib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husaynboshlangʻich maʼlumot olishga , ilm-fanni oʻrganishga kirishadi. Tabibning yoshligi, yigitlik chogʻlari Somoniylar humdorligining soʻnggi yillari Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davriga (976-997)toʻgʻri keladi. *Har kim hodisalardan ibrat ola bilsa, boshi qattiq otga oʻxshagan bu falak ham unga boʻysunadi! – deb taʼkidlagan.*

Ibn Sino 10 yoshidayoq Qurʼonni yod olib, 13 yoshlaridan boshlangʻich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shugʻullana boshlaydi. Ibn Sino yosh boʻlishiga qaramay, Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida falsafa, Hasan ibn Nuh al-Qumriydan tibbiyot ilmini har tomonlama oʻrganadi, asta-sekinlik bilan tabiblik bilan ham shugʻullandi. U oʻzidan avval

¹ Mirziyoev Sh. “2018 yil Murojaatnoma” dan.

² . Mes A. Musulmanskiy renessans. –M.:1973.

o'tgan sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur o'rganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan Aristotel, Yevkilid, Ptolomey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan o'rganadi. 16-17-asrlardayoq Ibn Sino mashhur tabib-hakim bo'lib taniladi.

Bundan tashqari, Bizgacha etib kelgan beba'xo kўlėzmalar madaniy haetni jonlantirish va rivojlantirishga katta e'rdam beradi. Uzoq davom etgan siėsiy va iktisodiy kurashlar natijasida mustaqillikni kўlga kiritgan Somoniyalar davlatining birinchi hukmdorlari jamiyatni madaniy va ma'naviy kadriyatlar asosida birlashtirmasdan turib, davlat mustaqilligini saqlab qolish mumkin emasligini angladilar.

Arab e'zuvida badiiy ijodni ta'qiqламаган holda, somoniyalar oddiy xalq anglaydigan tilda e'zgan mualliflarni tўla kўllab-quvvatladilar. Ular nafaqat adabiet ahliga, balki barча olimlarga homiylik kўrsatib, Sheroz kutubxonasi bilan raqobat qilişga qodir bўlgan ulkan kutubxonani yaratdilar. Uluf alloma Ibn Sinoning e'zişicha, kutubxona kўpxonali bўlib, xonalarning birida arab kitoblari, шеърлари бошқасида фикхга оид китоблар tўplanган. Fanlarning ma'lum sohasiga doir kitoblar tartib bilan har bir xonada taхlab kўyilgan. Ular orasida eng e'tiborlisi va yirigi somoniyalarning sulovaviy kutubxonasi bўlgan. Mўғullar bosқini arafasida (XIII asr boşlari) Samarqand, Marv, Balx va boşqa yirik шаҳарларда ҳам ilm-fanga qiziquvchilar tўplanaдиган madaniyat markazlari bўlgan. Bu markazlarda kitob e'zişiga e'tiborning kuchayishi, kitoblarni bezash, naқşlar bilan kўrkam qiliş musavvirlik va хаттотлик san'atining takomillashişiga zarur шароит yaratilgan.

Tarixdan ma'lumki, 999-yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, Ibn Sino Buxorodan chiqib ketadi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga boradi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Ma'mun saroyidagi olimlarni birlashtirgan o'z zamonasining akademiyasiga qabul qilinadi. U yerda Beruniy, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Iroq kabi yetuk olimlar bilan tanishadi. Mahmud G'aznaviyning taqibidan qochib Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarson-sargardonlikda yurishga majbur bo'ladi. Jurjon shahriga kelgan Ibn Sino hokim Qobus ibn Vashmgir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi, bo'lajak shogirti Juzjoniylar bilan tanishadi. Hamadondagi vazirlik chog'ida hokim bilan kelisha olmay, 4 oy mobaynida qamoqda saqlanadi.

Buyuk vatandoshimizning asarlari 450 dan ortiq bo'lib, taassufki, bizgacha faqat 160 dan ortiq asarlari yetib kelgan xolos. Ko'p asarlari turli falokat va saroy fitnalari oqibatida yo'qolgan. Uning bizgacha ma'lum bo'lgan katta asari "Kitob ush-Shifo" (Shifo kitobi) 22 jildan iborat bo'lib, unda mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar yoritilgan. Olimning "Kitob un-najot" (Najot kitobi), "Kitob lison ul-arab" (Arab tili kitobi), "Donishnoma" fors tilida yozilgan bo'lib, rus tiliga tarjima etilgan. Bu kitoblarni o'zbek tiliga tarjima qilish esa, bugun yelkamizdagi ulkan ma'naviy qarz!

Abu Ali Ibn Sinoning o`z zamonasida tabobat ilmida yuksak darajaga erishgani va hatto bugungi kunda ham alohida e`tirofga sazovor bo`layotganiga ayniqsa bugungi sinovli kunlarda yana bir bor guvohi bo`lmoqdamiz. Zero bugun dunyoning barcha tashkilotlarining pandemiya davrida odamlar o`zini qanday tutish kerakligiga oid malumotlari bundan ming yil ilgari ulug` tabibimizning bu haqda qoldirgan ilmiy merosi naqadar to`g`ri ekanligini tasdiqlaydi. Buyuk bobokalonimizning tabobat ilmi rivojlanishiga qo`shgan hissalar ulkandir. Dunyoga ma`lum va mashhur bo`lgan "Tib qonunlari" tahsinga sazovordir. Ushbu kitob beshta tomdan iborat: 1-tom: tibbiyot ilmi- o`tchil va surunkali kasalliklarning ta`rifi, ularning tashhisi, davolanishi, jarrohlik. 2-tom: tabiiy giyohli dorilar haqida hikoyalar, 3 va 4-tomlar: inson tanasidagi kasalliklar, a`zoldagi sinishlar bo`yicha tavsiyalar, 5-tom: Ibn Sini tomonidan mustaqil tayyorlangan murakkab tarkibli dorilar xususiyatining ta`rifi hamda Yevropa va Osiyodagi qadimgi tabiblarning yozuvlaridan manbasifatida foydalandi.

Bundan tashqari, bobomizning bugun insoniyatga xizmat qilayotgan odob- axloqqa oid asarlari ham tahsinga sazovordir. Ibn Sino o`zining axloq to`g`risidagi asarlarida insonlar kundalik ishlarida kamtarlik, izzat-hurmat, jasurlik, to`g`rilik, sofdillik kabi asosiy qoidalarga alohida e`tibor berishlari zarurligini uqtirgani, tarbiyaning asosi bo`lgan bu fazilatlar ayni kunda mamlakatimiz umumta`limida nihoyatda qadrlidir. Shu jumladan, Ibn Sino bolani maktabda o`qitish va tarbiyalash zarurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari borishi va birga o`qitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka o`qitishga qarshi bo`lgan. Bolaning maktabda jamoa bo`lib o`qishining foydali jihatlari quyidagicha ifodalangan: bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo`ymaslik, ta`limda yengildan og`irga borish orqali bilim berish, olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo`lishi, kabilarni qayd etgan.

Bu talablar hozirgi davr ta`lim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga o`zining "Tadbiri manzil" asarida maxsus bo`lim bag`ishlaydi. "Bolani maktabda o`qitish va tarbiyalash" ("Omozish va parvarish madrasa farzand") bo`limida esa ta`lim -tarbiyajarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolani yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi. Dunyo tabobatida yelka suyagining chiqishini oddiy bosish yo`li bilan davolash usuli hozirgacha "Avitsenna usuli" ekanligi, umurtqani yog`och moslama yordamida tuzatish usulini Ibn Sinodan so`ng XV asrga kelib fransuz tabibi Kalo qayta kashf etganligi, tabobat tarixida ilk bora vabo bilan o`latni farqlab, ularni alohida (karantin) davolashni boshlagan, sariq kasalligi, moxov, qizamiq, suvchechak, kuydirgi, zotiljam, meningit, zaxm, oshqozon yarasi kabi kasallik belgilari va kechish jarayonini to`g`ri tasvirlagan buyuk tabib hayoti va boy merosini o`rganyapsizmi?" degan ma`suliyat ham dolzarb, ayniqsa, hozirgi COVID-19 holatida.

Xulosa qiladigan bo`lsak, fikrimiz yakunida bunday allomalari bor yurtfarzandlari iste`dodi barq urishi, el-yurtga xizmat qiladigan yetuk inson bo`libulg`ayishi muqarrardir. Bugungi kundagi biz yosh avlodlar ajdodlarimizga munosib farzand bo`lib yetishishimiz va

yurtimiz dovrug`ini dunyoga tanitishimiz lozimdir. Toki biz buyuk daholar avlodi ekanligimizni unutmasligimiz kerak.